

“TASDIQLAYMAN”

**“Transport ilmiy-tadqiqot markazi” MChJ
Ta’sischisi**



**O‘zbekiston Respublikasi
Transport vaziri**

I.R. Maxkamov

2023-yil “18” iyul

**“Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyati
Ta’sisчисining 1 -son**

QARORI

Toshkent shahri

2023-yil “18” iyul

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-iyundagi “Ma’muriy islohotlar doirasida transport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–94-son Farmoniga asosan O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyatining (keyingi o‘rinlarda - Jamiyat) Ta’sisчisi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonunining 30-moddasiga asosan Jamiyatning yuqori boshqaruv organi tomonidan, qaror qabul qilish maqsadida, quyidagi masalalar ko‘rib chiqildi:

- 1. O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi “O‘zavtotranstexnika” ilmiy-ishlab chiqarish markazi DUK “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyati etib qayta tashkil etish.**
- 2. “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyati Ustavi va tuzilmasini yangi tahrirda tasdiqlash.**

Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan, Jamiyat tomonidan quyidagi ma’lumotlar taqdim etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-iyundagi “Ma’muriy islohotlar doirasida transport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–94-son Farmonining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan “Transport vazirligi tizimidagi muassasalarni qayta tashkil etish Dasturi”ga muvofiq, Transport vazirligi huzuridagi “O‘zavtotranstexnika” ilmiy-ishlab chiqarish markazi” DUK, Transport vazirligi huzuridagi “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” MChJ etib qayta tashkil etilishi belgilangan.

Farmonga muvofiq, Transport vazirligi huzuridagi “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” MChJ transport sohasida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni ishlab chiqish, ilmiy tadqiqotlar, tajriba-sinov, loyihalash

va ekspertiza ishlarini o'tkazish, standartlash, sertifikatlashtirish va transport tizimini modellashtirish ishlarini amalga oshirishi va boshqa tijorat xizmatlarini ko'rsatishi belgilangan.

Shuningdek, Transport vazirligi huzuridagi "Transport ilmiy-tadqiqot markazi" MChJ faoliyati o'rnatilgan tartibda tasdiqlanadigan Ustav bilan belgilanishi ta'kidlab o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2023-yil 27-iyundagi "Transport ilmiy ishlab chiqarish markazi" mas'uliyati cheklangan jamiyatining ustavi va tuzilmasini tasdiqlash to'g'risidagi 107-son buyrug'iga muvofiq, "Transport ilmiy-tadqiqot markazi" mas'uliyati cheklangan jamiyati ustavi hamda Jamiyat tuzilmasi tasdiqlangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Toshkent Shahar hududiy boshqarmasi boshlig'ining 2023-yil 18-iyuldagi "O'zavtotranstexnika ilmiy-ishlab chiqarish markazi" davlat unitar korxonasini mas'uliyati cheklangan jamiyatiga o'zgartirish to'g'risidagi 55-son buyrug'iga asosan, "O'zavtotranstexnika ilmiy-ishlab chiqarish markazi" davlat unitar korxonasi qayta tashkil etish yo'li bilan "Transport ilmiy-tadqiqot markazi" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga o'zgartirilgan va bilan "Transport ilmiy-tadqiqot markazi" mas'uliyati cheklangan jamiyati "O'zavtotranstexnika ilmiy-ishlab chiqarish markazi" davlat unitar korxonasining shartnomalari, huquqlari va majburiyatlari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanishi ko'rsatib o'tilgan.

Mazkur buyruqning 5-bandiga asosan, "Transport ilmiy-tadqiqot markazi" mas'uliyati cheklangan jamiyati direktori vazifasini vaqtincha bajaruvchi etib Iminov Umidjon Muradjanovich tayinlangan.

O'zbekiston Respublikasining "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunining 54-moddasiga asosan,

Jamiyatni qayta tuzish;

Jamiyat, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa tashkiliy-huquqiy shakldagi tijorat tashkiloti etib qayta tuzilishga haqli ekanligi;

Qayta tuzish shaklida qayta tashkil etilayotgan jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi bunday qayta tashkil etish to'g'risida, qayta tuzish tartibi va shartlari to'g'risida, jamiyat ishtirokchilarining ulushlarini qayta tuzish natijasida tashkil etilayotgan yuridik shaxsning aksiyalariga (ulushlari, paylariga) ayirboshlash tartibi to'g'risida va ana shu yuridik shaxsning ta'sis hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida, shuningdek topshirish dalolatnomasini tasdiqlash to'g'risida qaror qabul qilinishi;

Jamiyatni qayta tuzish natijasida tashkil etilgan yuridik shaxsga qayta tashkil etilgan jamiyatning barcha huquqlari va majburiyatlari topshirish dalolatnomasiga muvofiq o'tishi belgilangan.

Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan Ta'sischi Qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-iyundagi "Ma'muriy islohotlar doirasida transport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-94-son Farmoni ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-iyundagi “Ma’muriy islohotlar doirasida transport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-94-son Farmonining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan “Transport vazirligi tizimidagi muassasalarni qayta tashkil etish Dasturi”ga muvofiq, Transport vazirligi huzuridagi “O‘zavtotranstexnika” ilmiy-ishlab chiqarish markazi” DUK, Transport vazirligi huzuridagi “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” MChJ etib qayta tashkil etilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Toshkent Shahar hududiy boshqarmasi boshlig‘ining 2023-yil 18-iyuldagi “O‘zavtotranstexnika ilmiy-ishlab chiqarish markazi” davlat unitar korxonasini mas’uliyati cheklangan jamiyatiga o‘zgartirish to‘g‘risidagi 55-son buyrug‘iga muvofiq, “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori vazifasini vaqtincha bajaruvchi etib Iminov Umidjon Muradjanovich tayinlansin.

Kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan, Jamiyat tomonidan quyidagi ma’lumotlar taqdim etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-iyundagi “Ma’muriy islohotlar doirasida transport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-94-son Farmonining 2-ilovasiga muvofiq, Transport vazirligi huzuridagi “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” MChJ faoliyati o‘rnatilgan tartibda tasdiqlanadigan Ustav bilan amalga oshirilishi;

O‘zbekiston Respublikasining “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonunining 13-moddasiga asosan Jamiyat ustavi tasdiqlanishi hamda 30-moddasiga muvofiq, Jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) miqdorini o‘zgartirish Jamiyat ishtirokchilari umumiy yig‘ilishining vakolatlari doirasiga kirishi belgilangan.

Shuningdek, “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyatining yangi tuzilmasini tasdiqlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan Ta’sischi Qaror qiladi:

O‘zbekiston Respublikasining “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonun talablarini inobatga olgan holda, “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyatining yangi tahrirdagi Ustavi mazkur qarorning 1-ilovasiga muvofiq;

“Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyatining tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.